




**ANDIJON VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB
CHIQUARISHI 2024-YIL YANVAR-SENTABR OYLARI**





DASTLABKI MA'LUMOT

**Tel.: 74 228-30-42
www.andstat.uz**



Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-oktiyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 5 214 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan 1 385 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,6 %) Andijon shahriga, 582 tasi (11,2 %) Andijon tumaniga, 420 tasi (8,1 %) Asaka tumaniga, 377 tasi (7,2 %) Shahrixon tumaniga va 313 tasi (6,0 %) Xo'jaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalarda sanoat korxonalarining ulushi




Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari


Sanoat- bu, xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 61 985,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 108,2% ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-sentabr, mlrd. so'mda




Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-sentabr, % da



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Andijon viloyatida 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 17 229,7 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,
yanvar-sentabr, ming. so'mda





Viloyatda aholi jon boshiga sanoat
mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

17 229,7 mingso'm



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
o'sish sur'ati, yanvar-sentabr, % da




mingso'mda



o'sish sur'ati, % da


Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 60 033,0 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,9 % ni tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Asaka tumani (50,1 %), Andijon shahar (14,2 %), Xonobod shahar (4,2 %), Qo'rg'ontepa tumani (3,8 %) hissasiga tog'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI Baliqchi tumanida (112,1 %), Buloqboshi tumanida (109,1 %), Ulug'nor tumanida (108,8 %) Izboskan tumanida (108,4 %), kuzatildi.





Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 277,5 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ini tashkil etdi.

*Sanoat ishlab chiqarishi hajmi,
yanvar-sentabr, mlrd. soʻmda*



*Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning
jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*

*Sanoat ishlab chiqarishi FHI,
yanvar-sentabr, % da*





Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat - bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 60 033,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 96,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-sentabr mlrd. so'mda




Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi


Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-sentabr % da



Yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlar (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 67,7 % (60,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 2,9 % (2,4 %), quyi texnologiyali 29,3 % (28,5 %) ni tashkil etgan.



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Andijon viloyatida
yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish
(2024-yilning yanvar-sentabr oylarida)

Yengil avtomobillar – umumiy yoki “maxsus yengil avtomobillar”ga bo‘linib, 4 kishigacha mo‘ljallangan transport vositasi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 117 705 dona “Cobalt” (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 53,8 % ga oshdi), 12 837 dona “Gentra” (22,0 % ga kamaydi), 31 197 dona “Tracker” (10,4 % ga oshdi), 24 753 dona “Onix” (12,1 % ga oshgan) ishlab chiqarildi.



“Cobalt”

2024-y.

31 197 dona

2023-y.

76512 dona

2022-y.

69816 dona



“Gentra”

2024-y.

12 837 dona

2023-y.

58283 dona

2022-y.

64074 dona



“Tracker”

2024-y.

31 197 dona

2023-y.

28 253 dona

2022-y.

540 dona



“Onix”

2024-y.

24 753 dona


2023-y.

22 082 dona

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,1 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 90,3 % va ishlab chiqarish hajmi 53,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,0 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,7 % ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 474,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,5 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 113,2 % va ishlab chiqarish hajmi 3 925,5 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,2 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,9.m % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 95,3 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,3 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,6 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 6 197,4 mlrd. so'mga to'g'ri keladi.



Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,1 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 103,7 % va ishlab chiqarish hajmi 7 292,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,3 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 112,8 % ga oshdi hamda ishlab chiqarish hajmi 764,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – foydalanish uchun tayyor bo'lgan xom neft va ko'mir mahsulotlarini qayta ishlashni, xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo'lgan kreking va distillyatsiyalash yo'li bilan neftni tozalashni hamda etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,02 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 91,8 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 10,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 124,8 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 478,5 mlrd. so'm kuzatildi.



Elektr uskunalari ishlab chiqarish

Elektr uskunalari ishlab chiqarish – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo'lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblari ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarishning ulushi 1,6 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 179,3 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 933,8 mlrd. so'm ekani kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblarga uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, koʻrsatilgan metallar (baʼzida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni oʻz ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga koʻra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 86,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 516,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish – yoʻlovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni oʻz ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, tirkamalar va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham oʻz ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga koʻra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 60,5 % ni tashkil etib, oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,0 % ga oshdi, ishlab chiqarish hajmi 36 349,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi.





Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, hududlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiya-sini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 517,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etgan.


Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-sentabr mlrd. so'mda



0,8 %

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-sentabr % da





Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 157,6 mlrdso'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % iga) to'g'ri keldi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-sentabr mlrd. so'mda



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-sentabr % da



Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 14 978,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 25,4 % ni tashkil etdi.



Andijon sh.	26,9
2 360,6	
Xonobod sh.	24,1
629,5	
Oltinkoʻl	49,1
560,9	
Andijon	81,0
1 103,7	
Baliqchi	80,1
1 736,2	
Boʻston	72,2
363,5	
Buloqbohi	69,5
507,6	
Jalaquduq	93,1
1 060,7	
Izboskan	99,4
1 144,3	
Ulugʻnor	90,6
471,9	
Qoʻrgʻontepa	53,9
1 284,8	
Asaka	1,9
580,7	
Marhamat	48,8
463,7	
Shahrixon	87,1
1 131,5	
Paxtaobod	36,5
328,1	
Xoʻjaobod	56,2
1 251,0	

● mlrd. soʻmda ● Ulushi, % da